

Bolalar To‘g‘Ri Kasb Tanlashining Pedagogik Va Psixologik Xususiyatlari

Yulchiyeva G. Yu¹

Annotatsiya: Kasb tanlash jarayoni yoshlarning kelajakdagi muvaffaqiyati va hayot sifati uchun muhim omil hisoblanadi. Bolalarga kasb tanlashda yordam berishning pedagogik va psixologik xususiyatlari bu jarayonning samaradorligini oshirishi mumkin. Ushbu maqolada, bolalarga to‘g‘ri kasb tanlashning pedagogik va psixologik aspektlarini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: kasbiy tanlov, kasbiy o‘zini o‘zi belgilash, individuallik, qobilyat, qiziqish va motivatsiya, yo‘nalganlik.

Jamiyatimizda ijtimoiy rivojlanishning asosiy sohalaridan biri bu xalq ta’limi tizimi xisoblanadi. Xalq ta’limi tizmini rivojlantirish yoshlarni ta’lim-tarbiyasiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratib ularni kasb-xunarga yo‘naltirish ishlariga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda. Zero davlatimiz rahbari ta’kidlaganlaridek - “Yangi O‘zbekiston - maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlarni amalgalash oshiramiz.

....o‘g‘il-qizlarimizni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan zamонавиy kasb-hunarlargacha o‘rgatish, ularda tadbirdorlik ko‘nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish, ish va uy-joy bilan ta’minalashga ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Bir so‘z bilan aytganda, bola tug‘ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo‘lgan davrda uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishi uchun ko‘mak beradigan, yaxlit va uzlucksiz tizim yaratiladi.

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o‘n, yuz barobar ko‘p foyda keltiradi.

Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino, bundan ming yil oldin “Dovyurak va botir insonlar kelajakda sodir bo‘ladigan qiyinchiliklardan qo‘rqmaydi”[1.5-6b.]

Birinchi bo‘lib bolaga tog‘ri kasb tanlashning pedagogic xususiyatlariga e’tibor qaratsak. Kasb tanlashda ta’lim tizimining roli muhimdir. Pedagogik yondashuvlar bolalarga kasbga tayyorlashda yordam berishi mumkin. Maktablarda kasbga yo‘naltirilgan darslar, malakali mutaxassislarining ma‘ruzalarini tashkil etish, va professionallar bilan uchrashuvlar bolalarga kasbiy qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirishda yordam beradi.

Kasbiy orientatsiya dasturlari bolalarga turli kasblar haqida ma'lumot beradi, ularning qobiliyatlarini aniqlashda yordam beradi. Bu darslar bolalarning o‘z qobiliyatlarini va qiziqishlarini aniqlashga yordam beradi, shuningdek, qanday kasblar ularga mos kelishi mumkinligini tushunishga imkon beradi.

Har bir bolaning qobiliyatlarini va qiziqishlari o‘ziga xosdir. Pedagoglar bolalarga individual yondashuv orqali, ularning kuchli tomonlarini va kamchiliklarini aniqlashlari va ularga mos kasblarni tavsiya qilishlari kerak.

Ota-onalar bolalarning kasb tanlash jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Pedagoglar ota-onalar bilan hamkorlik qilib, bolalarga to‘g‘ri yo‘nalish tanlashda yordam berishlari kerak.

¹ Andijon davlat pedagogika instituti “Pedagogika va Psixologiya” kafedrasini o‘qituvchisi



Har bir bola o'zicha individual hatto biro ta onaning farzandlari turli xil qiziqish, qobilyat va yo'nalanlikka ega xisoblanadi. Shunga ko'ra har bir bolaga psixologik jihatdan individuallikka mos ravishda kasbga yo'naltirish avvalo ichki omillarga qarab amalga oshiriladi. Bolani kasb tanlashida ahamiyat beradigan psixologik xususiyatlar haqida so'z borganda birinchi navbatda bolaning qiziqishlari qobilyat va ichki layoqatlari ahamiyatli xisoblanadi.

Bolani to'g'ri kasb tanlashida o'ziga bo'lgan ishonch"ni birinchi psixologik xususiyatlardan deb aytal olamiz. Bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchi ularning kasb tanlash jarayoniga ta'sir qiladi. Psixologik yondashuvlar, masalan, o'zini o'zi baholash va ishonchni oshirish, bolalarga to'g'ri kasb tanlashda yordam berishi mumkin.

Bolaning kasb tanlashdagi yana bir psixologik xususiyatlaridan biriga to'xtaladigan bo'lsak bu bolaning qobiliyatini aniqlab olish xisoblanadi. Bu borada psixologik testlar va qobiliyatlarni aniqlash metodikalari bolalarning qobiliyatlarini va qiziqishlarini aniqlashda yordam beradi. Bu usullar bolalarning qanday kasblarga mos kelishini aniqlashda yordam berib bola ushbu test metodikalar orqali tanlangan kasbda kelajakda albatta muvaffaqiyatga erishadi.

Bolada to'g'ri kasb tanlashning yan bir psixologik xususiyatlaridan biri bu stress va qiyinchiliklarga qarshi kurash xisoblanadi. Kasb tanlash jarayoni bolalarga stress va qiyinchiliklar keltirishi mumkin. Psixologik yordam va maslahatlar bolalarga bu qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradi va ularga kasb tanlashda to'g'ri qarorlar qabul qilish imkoniyatini oshiradi.

Har bir bolada tog'ri kasb tanlashda ahamiyat qaratish lozim bo'ladigan bir hususiyat bu boladagi kasblarga bo'lgan qiziqishlar va motivatsiya xisoblanadi. Bolalarning qiziqishlari va motivatsiyasi ularning kasb tanlash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Psixologik metodlar orqali bolalarning qiziqishlarini aniqlash va ularga mos kasblarni tavsiya qilish mumkin.

Bolalarga to'g'ri kasb tanlashda pedagogik va psixologik yondashuvlarning ahamiyati katta. Ta'lim tizimida kasbiy orientatsiya dasturlari, individual yondashuvlar va ota-onalar bilan hamkorlik bolalarga to'g'ri kasb tanlashda yordam beradi. Shuningdek, psixologik yordam, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, qobiliyatlarni aniqlash va motivatsiyani rivojlantirish bolalarning kasb tanlash jarayonida muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi. Ushbu yondashuvlar bolalarga kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam asos yaratadi va ularga o'z qobiliyatları va qiziqishlariga mos kasbni tanlash imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar ro'yhati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr 5-6 bet.
2. Abdulmadjidova, M. (2021). Muloqot–Bola Psixik Rivojlanishining Muhim Omili. BARQARORLIK VA YETAKCHI
3. Ziyomuhammadov, B., & Abdullayeva, S. (2006). Pedagogy. Study guide. Tashkent, 40.TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 614-617.
4. Abdullaeva, S. H. (2014). Shaping to emotional stability future teachers of the professional education. European Journal of Natural History, (4), 23-24.
5. Khamidovna, A. S. The Role of a Psychologist in Creating a Learning Environment in Higher Education Institutions.
6. Абдуллаева, Ш. Х. (2021). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СТРЕССА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ:
7. Абдуллаева Шоира Хамидовна Ташкентский государственный университет Востоковедения, заведующий кафедрой педагогики и психологии, доктор психологических наук, доцент. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (5).



8. Khamidovna, A. S. (2018). The Study of the Emotional Stability of Secondary School Teachers—as a Component of Professional Competence. Archive, 75.
9. Абдуллаева, Ш. Х. (2016). Коммуникативные Умения Как Профессиональная Компетенция Педагога. NovaInfo. Ru, 3(54), 304-306.
10. qizi Xabibullayeva, S. S., & qiz Abdulmadjidova, M. D. (2023, January). Tezkor Qaror Qabul Qilish-Hozirgi Zamon Muhim Talabi. In *International Conferences* (Vol. 1, No. 2, Pp. 45-49).
11. Abdulmadjidova, M., & Sattarova, I. M. (2021). O'smirlar o'rtasidagi nizoli vaziyatlarni bartaraf etishda hamkorlik masalalari. *Science and Education*, 2(12), 602-608.
12. Sattarova, I. M., & Abdulmadjidova, M. (2021). Ta'lim Jarayoni Samaradorligini Oshirishda O 'Yinli Texnologiyalardan Foydalanish Pedagogik Zaruriyat Sifatida. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(6), 5-9.

